



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

arxitektorlarimiz respublikamizda yo‘q emas. Bir narsa, qadim qadimdan ham me‘mor ustalar kamtarin, hayotda kamsuqum bo‘lib tug‘ilgan ijodkorlardir. SHuning uchun ham ular o‘z ism shariflarini o‘tmishda qurgan me‘moriy obidalarida yozib qoldirmagan. Biroq, ularning ham mehnatini ulug‘laydigan zamonlar endi keldi, deb o‘ylaymiz.

SHu paytgacha shukronalik arxitekturasini yaratib keldik. Nima yaratsak shukr qildik, shukr dedik. Endi zamonamizga mos va xos, “uyg‘oq arxitektura”ni yaratishimiz kerak. Uyg‘oq arxitektura deganda men nimani e‘tiborga olayapman? Biz bugungi kunda respublikamizning eski evolyusion taraqqiyotidan chiqish arafasida turibmizmi, demak, biz porloq innovatsion taraqqiyot yo‘lining boshidamiz. Hayotimizning barcha sohalari kabi O‘zbekiston arxitekturasida ham uyg‘onish, ya‘ni Renessans davri keldi, deb o‘ylayman. Men uyg‘oq arxitektura deganda aynan ana shularni nazarda tutmoqdaman.

Biz endi boriga shukr deb o‘tirmasdan, chin dilimizdan harakat qilmog‘imiz, buning uchun endi qalbi cho‘g‘ bo‘lib turgan yoshlarimiz ustiga sovuq suv sepib, ularni tutunga aylantirib emas, balki bu cho‘g‘larga alanga berib, ularni olovga aylantirishimiz zarur. Buning uchun biz faqat talabalarimizdan o‘z burchini talab qilavermasdan, o‘zimizning ham burchimizni yaxshi anglamog‘imiz kerak, endi biz pedagoglar ham aql-idrokimiz, iqtidorimizni yanada charxlashimiz kerak.

Biz endi yuksak madaniyatli va mahoratli pedagoglar bo‘lishimiz kerak, shu paytgacha biz o‘zimizni madaniyatli qilib ko‘rsatdik, biroq mahoratimiz yo‘q edi. Mahoratimiz bo‘lsa, madaniyatimiz etishmasdi. Endi esa madaniyatimizni mahoratimizga mushtarak etib, Vatanimizdagi yangi Renessansga, O‘zbekiston taraqqiyotiga o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz zarur.

BUXORO TURARJOYLARINING GENEZISI, ME‘MORIY SHAKLLANISHI.

Yunusov Shokir Mamatovich. Buxoro Davlat Texnika Universiteti
“Muhandislik” fakulteti, “Arxitektura” kafedrası katta o‘qituvchisi

Kirish

Maqolada Buxoroda quriladigan turarjoylarning me'moriy shakllanishi, Islom dinining ta'siri ostida Buxorodagi turarjoylar, jamoat binolari qurilishlari o'zgarganligi sabablari haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Arab iste'losi (*Qutayba ibn Muslim Bohiliy tomonidan Buxoro fatx qilingandan so'ng VII asr.*) o'rta Osiyoga kirib kelishi bilan, oldingi qurilgan uy-joylarga, jamoat binolariga tubdan o'zgartirishlar kiritila boshlanganligi haqida aytilib, misol tariqasida eski shahar mavzesidagi bino va inshootlar qurilishlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan. Eski shahardagi To'raquliboy, Abdullabek uylari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Аннотация

В статье рассматривается архитектурное оформление жилых зданий Бухары. Причины, по которым религия Ислама изменил тип конструкции жилых и общественных зданий Бухары.

Говорят, что с приходом арабских завоевателей (после завоевания Бухары Кутейбой ибн Муслимом аль-Бахили) в Среднюю Азию начали вноситься радикальные изменения в ранее построенные дома и общественные здания, а также высказывались мнения, и в качестве примера приводились комментарии о домах Торакулибоя, Абдуллабека в районе старого города.

Annotation

The article discusses the formation of house development in the Bukhara region, the reasons for dividing houses with courtyards into two courtyards. After the Arab conquest of Bukhara by Qutaiba ibn Muslim Bohili, it is said that with the entry into Central Asia, Fundamental changes began to be made to previously built houses, and as an example, comments were given about the houses of Torakuliboy, Abdullabek in the area of the old city.

Asosiy qism

Buxoro voxasida turarjoylar qurilishi tarixini, uning genezisini o'rganish uchun, avvalo, uning markazi hisoblangan Turon zaminining buyuk shahri, Buxoroi Sharif nomiga muyassar bo'lgan, Buxoro shaxri qurilishlari va uy-joy qurilishlarini o'rganib chiqish, hamda uning tarixiga murojaat qilish lozim deb hisoblaymiz.

Arab iste'losi (*Qutayba ibn Muslim Bohiliy tomonidan Buxoro fatx qilingandan so'ng*) o'rta Osiyoga kirib kelishi bilan, azaldan yashab kelinayotgan turarjoylarga, o'zgartirishlar kiritila boshlandi. Arab xalifalarining ko'rsatmalariga binoan,

aholining o'ziga to'q qatlamlari o'zlariga uy-joy qurilishini hovlilar bilan o'rab olib, ularni ikkiga bo'lib ya'ni ichki va tashqi hovlilar shaklida qura boshladilar (1-rasm). Tashqi hovlilar Xalifalarning ish yurutuvchilari, ichkari hovlidagilarga Islom dinini, qonun-qoidalarini o'rgatuvchi bilimli odamlari (maxsus ilmi odamlardan tuzilgan guruhlar - Xo'jalar) o'tirib ishlaydigan joylari uchun ajratilgan. Ichki hovlida uy egasi xotinlari va bolalari bilan yashagan, nomahramlar ko'zlari tushushidan saqlangan. Umuman xalq me'morchiligida "hovlilar uy-joylar qurilishining asosiy kompozitsiyasini va barcha xo'jalik uchun zarur bo'lgan ishlarni bajarish markazini tashkil qilgan. Ichki hovlidan barcha xona va xo'jalik xonalariga chiqish qulay bo'lgan". *"T.A.Nizamov. Arxitekturno-planirovochnye osobennosti proektirovaniya jilyx zdaniy v usloviyax jarkogo klimata " Monografiya 44-str. Toshkent-2015*

Bu hovli bo'linishlari milliy arxitekturamizga tubdan ta'sir qilib, ushbu yo'sinda uylar qurilishi tashkil qilina boshladi. Bular o'z navbatida milliy me'morchiligimiz tomonidan takomillashtirilib, borildi. Tashqi hovlilarda jamoa ishlari, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullana boshlashdi. Savdo bilan shug'ullanish natijasida turarjoylarga qo'shimcha xonalar qurish zaruriyati ko'rinib qoldi, shu sababli uylar ostiga yerto'lalar qurilib, omborlar sifatida qo'llana bordi. Bunday qurilishlarga Buxoro eski shahar mavzesida qurilgan birnecha uylarni misol keltirish mumkin. Masalan Domla Halim Ibodov ko'chasida qurilgan To'raquliboy (katta boy bo'lgan, teri, jun savdosi bilan shug'ullangan. Buxoro Amirning savdo ishlarida ishonchli kishisi hisoblangan) uyi, Arabon va Abdulla To'qay ko'chalari kesishmasida qurilgan Abdullabek uyi va hokazalar.

Buxoro voxasining iqlimi o'zgaruvchan kontinental iqlimdir. Yoz o'ta quruq, havoning nisbiy namligi juda pasayadi, iyul - avgust oylarinig ba'zi kunlarida bu ko'rsatkich 10-20 foizga kamayadi. Viloyat hududida kecha-kunduz o'rtasidagi haroratning keskin bo'lishi tufayli bahorda, kuz fasllarida shudring qirov, namreza kabi tabiiy hodisalar sodir bo'lib turadi.

Chor Rossiyasining Buxoroni iste'lo qilganidan boshlab, hayotning barcha ko'rinishida bo'lganidek, me'morchilikda ham yangicha an'analar, ya'ni hukumron


mamlakatning o'ziga xosliklari zo'rlab olib kiritila boshlandi. Buxoro me'morchiligiga xos bo'lmagan yangicha binolar shaharning ichida ham qurila boshladi, masalan Keyinchalik viloyat kasalxonasiga aylantirilgan bino va inshootlar, Kogon shahrida qurilgan turarjoylar va hakoza

Yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shaharning turar-joy binolarini qurish me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'lum darajada keyinchalik siyosiy barqarorlikning o'rnatilishi, mahalliy turarjoy binolari qurilishi ayni vaqtda Buxoro xalq me'morchiligi an'analari taraqqiy etishiga yordam berdi. Buxoro me'morchiligida turar-joy binolarining an'anaviy tarzda ikkiga bo'linishi, ya'ni ichki (shaxsiy) va tashqi (qabul va mehmonxona) tarzidagi bo'linishi saqlanib qoldi va rivojlantirildi. Bu tarzda bo'linish Buxoro me'morchilik maktabi uchun xos bo'lib, tabiiy iqlim sharoitlarini hisobga olgan asosiy kompozitsiya usulidir. Uylar qadimgidek asosan mahalliy xom-ashyolardan hamda mahalliy quruvchi ustalar va bezakchilarning loyiha usullari asosida qurildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu davrda Buxoro me'morchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlari saqlanib qoldi va hatto O'ropacha tarzda qurilgan binolar va uy joylarda ham yaqqol ko'zga tashlanib turardi.

Rus podsholigi va amaldorlari kelib turadigan boy bo'lgan shaxslarning uy-joy arxitekturasida yangi loyihalar ishlab chiqila boshladi yoki ustalar tomonidan loyiha uslublari qabul qilindi. Shu bilan birga Buxoroga xos va mos bo'lgan uy-joylar qurilishlari shakllana boshladi.

Milliy me'morchiligimizda, me'morchilik va uning g'oyalari har doim zamon bilan, odamlarning umid va orzulari bilan chambarchas bog'langan.

Яхлит бирта ховлидан иборат бўлган икки
(ташқари ва ичкари) ховлили ўй-жойнинг
схематик жойлашуви



**1-rasm. Yaxlit bir hovlidan iborat bo'lgan, ikki hovlili
turarjoyning sxematik joylashuvi**

To'raquliboy uyi.


Uy XX-asr boshlarida 1913 yilda Buxoro shahrining “Eski shahar” mavzesi markazida, hozirgi Domla Halim Ibodov ko'chasida qurilgan. Turar-joy binosi umum kompozitsiyasi rejasida ikkiga bo'lingan, ya'ni ichki (shaxsiy) va tashqi (qabul va mehmonxona) tarzida.



Abdullabekning uyi.

Uy buxoro shahrining eski shahar mavzesida Arabon ko‘chasida (*Arabon va Abdulla To‘qay ko‘chalari kesishmasida*) Solloxxona darvozasi yonida qurilgan. Odatdagi Buxorocha uylardan farq qilgan, u ikki qismga emas balki to‘rt qismga bo‘lingan. Uyning bir qismini alohida qurilgan minorali masjid va ikki qavatli karvonsaroy hujralari band qilgan.

Ayollar va bolalarni begona ko‘zlardan saqlash uchun, alohida ichkari hovli (hovli darun) qurilgan. Ichkari hovli shaxsiy hovli hisoblanib, unga tashqari hovlidan (hovli darun) sayisxona (otxona) orqali yer to‘ladan o‘tilgan.



Ushbu uylar va yana Buxoro shahrida qurilgan bir necheta turarjoylar qadimgi uy-joylarni qurilish xususiyatlarini saqlab qolib, uy-joylar qurilishining tarixiy shakllanishini hosil qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuni shunday xulosalash mumkin:

Buxoro turarjoylarining genezisi, me'moriy shakllanishlarini, usta me'mor ajdodlarimizning, qoldirgan bebaho boyliklaridan oqilona, ilmiy yondashuv bilan o'rganish, hozirgi davrga yetib kelgan turarjoy va bino inshootlarni avaylab asrashimiz zarur.

O'sha davr usta me'morlarining turarjoy binolarini dunyo tomonlariga orientatsiya qilishga intalganliklarini e'tiborga olish va qayta-qayta o'rganish zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Buxoro tarixi” Abu bakr ibn Ja’far An Narshaxiy – O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti Toshkent 1966
2. «Народные традиции Архитектуры Узбекистана» В. Л. Воронина. Государственное издательство Архитектуры и градостроительства. Москва-1951
3. В.А.Нелсон. *У истоков современного градостроительства Узбекистана (начало XIX-XX веков)*. Тошкент Издательства литературы и искусства имени Гафура Гулуама 1988
4. Herman Vemberi. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi.Toshkent G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1990
5. “Buxoro voxasida hovlili turarjoylartipologi va tendensiyasi” Yunusov Sh.M. Dissertatsiya (PhD). Toshkent – 2024y
6. Т.А.Низамов. “Архитектурно-планировочные особенности проектированиуа жилых зданий в условиуах жаркого климата” Монографиуа. Ташкент 2015 год.

SABZAVOT VA POLIZ EKINLARINI YETISHTIRISHGA MOSLASHGAN O’RTA QAVATLI BINO LOYIHALASH TAKLIFI

Setmamatov Maqsud Bekturdiyevich,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Arxitektura”

kafedrasi arx.f.n, dotsent

Ismoilov Davronbek Saporboyog'li

2-kurs magistrant, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat

universiteti, “Arxitektura” kafedrasi

Annotatsiya

Maqolada sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirishga moslashgan o’rta qavatli maxsus bino loyihasi, o‘zini-o‘zi energiya bilan ta’minlash texnologiyalari va